XALQ DEPUTATLARI UZUN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 29-may VII-8-42-8-118-K/25 Uzun tumani

2025-yilning I-choragi davomida Uzun tuman mahalliy budjeti daromadlar rejasining belgilangan prognoz ko‘rsatkichlaridan orttirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida;

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonunining 13-moddasiga muvofiq tuman budjetining joriy yil I-choragi davomida shakllangan qo‘shimcha mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha xalq deputatlari Uzun tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1.O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonunining 13-moddasiga muvofiq, mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish tartibi belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Tuman hokimligi, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda aloqador tashkilotlarning tuman budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritgan takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3.Tuman budjetining qo‘shimcha manbalari quyidagilardan tashkil topadi:

tuman budjetining har yil boshida aniqlanadigan erkin qoldiq mablag‘laridan;

tuman budjeti daromadlarining birinchi, ikkinchi va uchinchi hisobot choraklari yakuni bo‘yicha aniqlanadigan daromadlarni prognozdan oshirib bajarilishidan;

tuman mahalliy budjetiga yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari hisobidan ajratilgan mablag‘lardan;

O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 120-moddasi to‘rtinchi qismiga muvofiq tuman budjetidan ajratiladigan mablag‘lar kamaytirilishi natijasida bo‘shab qolgan mablag‘lardan.

4. Uzun tuman mahalliy budjetiga joriy yilning I-choragida 26 442.9 ming so‘m yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan mablag‘ tushganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin hamda ushbu mablag‘ hisobidan quyidagi yo‘nalishga yo‘naltirilsin;

tuman hokimligida foydalanilgan internet tarmog‘i xizmati xarajatlari uchun 26 442,9 mln so‘m mablag‘ tuman hokimligiga yo‘naltirilsin.

Tuman mahalliy budjetining I-chorak daromadlar rejasining belgilangan prognoz ko‘rsatkichlaridan orttirib bajarilgan qismi jami 233 320,3 ming so‘mni tashkil yetganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin hamda ushbu mablag‘lar hisobidan quyidagi yo‘nalishlarga, jumladan;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PQ-5072-sonli qaroriga asosan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga (qo‘shimcha manbaning 30 foizi miqdorida) mablag‘ yo‘naltirish maqsadida 70,0 mln so‘m tuman hokimligiga,

tuman hokimligida foydalanilgan internet tarmog‘i xizmati xarajatlari uchun 3 557,1 mln so‘m mablag‘ tuman hokimligiga,

tuman hokimligining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish xarajatlari uchun 37,085 mln so‘m mablag‘ tuman hokimligiga,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-dekabr kuni mamlakatimiz Yoshlari bilan o‘tkazilgan O‘zbekiston Yoshlar forumi yuzasidan tasdiqlangan 100-sonli bayonining 18-bandi topshirig‘iga asosan O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti va uning filiallariga Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tavsiyasiga asosan qabul qilingan talabalarning to‘lov kontraktdan qarzdorligini qoplash uchun 7,678 mln so‘m tuman hokimligiga,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-102-son Farmonining 7-bandiga asosan turizm salohiyatini keng targ‘ib qilish hamda viloyatimizga xorijiy sayyohlar oqimini oshirish maqsadida 20.0 mln so‘m tuman hokimligiga,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-noyabrdagi “Bolalarning dam olishlarini tizimli tashkil etish va sog‘lomlashtirish ishlarini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-427-sonli qarori ijrosi yuzasidan Termiz shahar va tumanlar mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan jamg‘armaga mablag‘ ajratilish maqsadida 20.0 mln so‘m tuman hokimligiga,

tuman hokimligining iste’mol qilingan tabiiy gazdan vujudga kelgan qarzdorligini qoplash uchun 5.0 mln so‘m tuman hokimligiga,

tuman hokimligining xizmat avtomashinalarini yoqilg‘isi uchun 20.0 mln so‘m tuman hokimligiga,

tuman hokimligining xizmat avtomashinalarini ta’mirlash xarajatlari uchun 50.0 mln so‘m tuman hokimligiga yo‘naltirilsin.

5. Mahalliy budjetning qo‘shimcha shakllangan mablag‘lari favqulodda vaziyatlarda va shunga o‘xshash kechiktirib bo‘lmaydigan choralar ko‘rilishi talab etiladigan hollarda Kengashga keyin hisobot berish sharti bilan tuman hokimining qarori asosida yo‘naltirilishi mumkinligi belgilansin.

6. Joriy yilning I-choragi davomida Uzun tuman mahalliy budjeti daromadlar rejasining belgilangan prognoz ko‘rsatkichlaridan orttirib bajarilgan qismi hisobidan yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga chorak yakuni bilan tuman hokimi tomonidan hisobot berib borilishi belgilansin.

7. Tuman budjetining qo‘shimcha manbalaridan mablag‘ oluvchilarning rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanilishi, shuningdek ushbu mablag‘larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

8. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Uzun tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi A.Kamolov zimmasiga yuklatilsin.

9. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi BOZOROV XABIBULLA SHERDONAQULOVICH

Xalq deputatlari Uzun tumani Kengashining
2025-yil 29-maydagi
VII-8-42-8-118-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2025-yilning I-choragi davomida Uzun tuman mahalliy budjeti daromadlar rejasining belgilangan prognoz ko‘rsatkichlaridan orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘lar yuzasidan tuman hokimining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi takliflari

so‘m hisobida

T-r	Tashkilot nomi	Mablag‘ yo‘naltirishning maqsadi	Ajratiladigan mablag‘ miqdori, so‘mda
1	Uzun tuman hokimligiga	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi PQ-5072-sonli qaroriga asosan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga (qo‘shimcha manbaning 30 foizi miqdorida) mablag‘ yo‘naltirish	70 000 000
2	Uzun tuman hokimligiga	Tuman hokimligida foydalanilgan internet tarmog‘i xizmatlari uchun	30 000 000
3	Uzun tuman hokimligiga	Tuman hokimligi moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun	37 085 000
4	Uzun tuman hokimligiga	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-dekabr kuni mamlakatimiz Yoshlari bilan o‘tkazilgan O‘zbekiston Yoshlar forumi yuzasidan tasdiqlangan 100-sonli bayonining 18-bandi topshirig‘iga asosan O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti va uning filiallariga Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tavsiyasiga asosan qabul qilingan talabalarning to‘lov kontraktdan qarzdorligini qoplash uchun	7 678 000
5	Uzun tuman hokimligiga	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-102-son Farmonining 7-bandiga asosan turizm salohiyatini keng targ‘ib qilish hamda viloyatimizga xorijiy sayyohlar oqimini oshirish maqsadida	20 000 000

6	Uzun tuman hokimligiga	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-noyabrdagi “Bolalarning dam olishlarini tizimli tashkil etish va sog‘lomlashtirish ishlarini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-427-sonli qarori ijrosi yuzasidan Termiz shahar va tumanlar mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan jamg‘armaga mablag‘ ajratilish maqsadida	20 000 000
7	Uzun tuman hokimligiga	Tuman hokimligi xizmat avtomashinalariga yoqilg‘i mahsulotlari bilan ta’minlash uchun	20 000 000
8	Uzun tuman hokimligiga	tuman hokimligining xizmat avtomashinalarini ta’mirlash xarajatlari uchun	50 000 000
9	Uzun tuman hokimligiga	Tuman hokimligiga foydalanilgan tabiiy gazdan yuzaga kelgan qarzdorlikni to‘lash uchun	5 000 000
Jami:		**xxx**	**259 763 000**